IJTIMOIY PSIXOLOGIYADA INTELLEKT VA AQLIY TARAQQIYOTNING TAHLILI

Axnazarova D., GulDU dotsenti

Annotatsiya. ushbu maqolada psixologiya fanida intelekt muammosining o‘rganilishi haqida ilmiy fikrlar berilgan. Insonning aqliy taraqqiyoti hisoblangan intellektni tadqiq qilish bugungi kun fanining muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmasdan, intelekt bilishning eng yuksak bosqich ekanligi talqin qilinmoqda.

Kalit so‘zlar. intellekt, antik, modifikatsiya, intellekt strukturasi, fazoviy operatsiya, flyuidlashgan, kristallashgan, semantik, divergent, konvergent, imitatsiya, identifikatsiya, refleksiya, evristik, kreativ.

Abstract. This article provides scientific advice on the study of the problem of intelligence in psychology. The study of the mind, which is the intellectual development of man, is not one of the most important tasks of modern science, but is the highest level of intellectual knowledge.

Key words. intelligence, antiquity, modification, structure of intelligence, spatial operation, fluidization, crystallization, semantics, divergent, convergent, imitation, identification, reflection, heuristics, creative.

Ilmiy manbalardan ma’lumki intellekt so‘zi lotincha intellestus so‘zidan olingan bo‘lib, aql-idrok, anglash, tushunish, fahmlash degan ma’noni anglatadi.

Intellekt individning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir. Intellekt bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.Shtern, J.Piaje, D.Vekslerlar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan.

Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmasdan, balki bu muammo qadimgi davrlardan beri olimlarimizning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Hatto mazkur masala antik dunyoda yashab, ijod etgan atoqli faylasuf olimlarning diqqatini ham o‘ziga jalb qilgan. Ularning nuqtai nazariga ko‘ra, «nus» inson ruhining oliy, shuning bilan birga o‘ziga xos aqlli tarkibi bo‘lib, chunonchi Platon va Aristotellar olam hamda borliqni bilishning eng makbo‘l yo‘li ekanligini ta’kidlab o‘tganlar. Huddi shu boisdan, «nus» (aql) bilishning eng yuksak bosqich sifatida talqin qilinadi. o‘sha davrdagi eng keng tarqalgan ta'limotlardan hisoblangan ilohiy intellekt tushunchasi tadqiq qilina boshlandi hamda mazkur atama bilan oliy, yuksak, yuqori bilish qobiliyatlari tushuntiriladigan bo‘ldi.

O‘rta asrga kelib, «intellekt» tushunchasining mazmun va mohiyati ilm-fan mahsullariga asoslangan holda yanada kengaydi, yangicha alomatlar bilan boyib bordi.

Gardner o‘z tadqiqotini bosh miyasi ba'zi qismlari fiziologik jihatdan shikastlangan sinaluvchilarda o‘tkazgan. Ular ko‘pincha intellekt testlaridan quyi ballarni egallashgan. Bu sindrom vakillarining ba'zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo‘shib ayirishni tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo‘lishgan. Ba'zilari, biror tarixiy kun bilan bog‘liq sanalarni yoddan bilishgan.

faylasuf Kantning fikricha intellekt (nemischa verstand) bizdagi mavjud barcha tushunchalar tuzilishining strukturaviy bilish qobiliyatidir. Aql (nemischa-vernenst)bilish qobiliyatidir.

Olimlar o‘rtasida intellektning mohiyatini tushuntirishda, uni talqin qilishda va xaspushlashda ikki xil qarash mavjud bo‘lgan.

1. Birinchi guruh vakillarining qarashicha, intellektual xususiyatlar odamlarga nasliy yo‘l bilan ota-onalar tomonidan beriladi.

2. Ikkinchi guruh namoyondalari esa intellektni bola idrokining tezligi va tashki ko‘zg‘atuvchilarga nisbatan munosabati bilan bog‘lab tushuntirganlar.

Shveysariyalik psixolog J.Piaje intellekt muammosiga o‘z shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqkan holda endashadi. U ko‘p hollarda tafakkur tushunchasi urniga "intellekt" terminini ishlatadi, ba’zan psixologik atamalardan birmuncha o‘zoqlashadi va hokazo. J.Piaje intellekt nazariyasini 2 (ikki)ta muhit jihatlariga ajratib, ularni intellekt funksiyalari hamda intellekt davrlari deb nomlaydi. Piaje mulohazasiga ko‘ra, intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, kunikish) kiritilgan bo‘lib, ular intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi. J.Piaje intellektning kuyidagi rviojlanish bosqichlariga ajratadi:

Sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha).

Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).

Konkret (yakqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar) davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha).

Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni amalga oshirish) davri.

J.Piajening fikriga ko‘ra, intellektning o‘sishi bolada nutk paydo bo‘lishidan ilgari boshlanadi. Intellektning ko‘rtagi bolaning dastlabki tartibsiz xatti-harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Keyinchalik maqsadga yunaltirilgan harakatlar aktini amalga oshirish natijasida va tahlil qilish yordamida intellektning genetik ildizini o‘rganish uchun muhim imkoniyatlar yaratiladi.

Hozirgi davrga kelib esa insoning aqliy taraqqiyotini o‘rganish uchun hech vaqt kechiktirib bo‘lmaydigan qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Intellekt muammosi sobiq sovet psixologiyasida ham, chet el psixologiyasida ham eng ko‘p o‘rganilayotgan mavzulardan biriga aylanib qolmoqda.

O‘zbekistonda, sobiq sovet psixologiyasida va chet elda intellekt mohiyatini talqin qilishda turlicha yondashilsa ham, lekin umumiy maqsad bitta bo‘lib, u ham bo‘lsa, insoning intellektual taraqqiyoti, uning xususiyatlari, o‘ziga xosligini ochib berishdan iboratdir. Ko‘pgina manbalarda sobiq sovet psixologiyasida aqliy iste’dod yoki qobiliyat deb yuritilish an’anaga tus kirib qoldi.

Intellekt strukturasini aniqlash asrimizning boshlarida, ayniqsa psixolog olimlarning diqqatini o‘ziga tortdi.

Mashhur amerikalik olim Spirmen (1904 yil) individning xulq-atvoridan kelib chiqqan holda intellektning allaqanday «bosh» omilini ajratib ko‘rsatdiki, natijada uni Gfaktor deb atadi. Uning fikriga ko‘ra, arifmetik masalani yechishda, mashina dvigatelini ta’mirlashda yoki birorta chet mamlakat tilini o‘rganish jarayonida odamning miyasi hech qachon birday ishlamaydi.

Ba’zi kishilarda umumiy intellekt darajasi boshqalarniki bilan teng bo‘lishi bilan birga ayrim faoliyat turlarini bajarishga yaqqol ustunlik sezilib turadi.

Intellekt tuzilishini (strukturasini) tadqiq qilish Spirmendan tashqari bir qator olimlarning izlanishlarida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, amerikalik psixolog F.Frimen intellekt oltita (6) tarkibdan iborat, degan g‘oyani ilgari suradi va ularni quyidagicha xaspushlab ko‘rsatadi: Sonli operatsiyalarga nisbatan qobiliyatlilik.

Lug‘at boyligi. Geometrik shakllar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni ajrata olish o‘quvi. Nutq tezligi yoki sur’ati. Fikrlashga qobiliyatlilik. Xotira

Mashhur psixologlar R.Kettell va J.Xormlar esa intellektni ikkita tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar hamda ularning mohiyatini tushuntirib berishga harakat qiladilar: Flyuidlashgan intellekt. Kristallashgan intellekt.

Flyuidlashgan intellekt inson faoliyatining deyarli har bir jabhalarida ko‘zga tashlanib, dastavval u ilk bolalik davrida yorqinroq namoyon bo‘ladi, keyinchalik esa asta-sekin inson ruhiyatiga so‘nib boradi. Flyuidlashgan intellekt tarkibi u yoki nasldan-naslga meros tariqasida o‘tadi, "kristallashgan" intellekt tarkibi esa hayot davomida ontogenezda orttirilgan ko‘nikmalardan tashkil topadi.

Atoqli psixolog J.Gilfordning 1959-yilda o‘tkazgan tajribalarida intellekt strukturasini organishga yonaltirilgan tadqiqotlari ayniqsa qiziqarlidir. Gilford intellektning 120 (bir yuz yigirma) ga yaqin faktor (omili) ni ajratib korsatadi.

Gilford ozining kubik modelida tafakkur olchamlaridan (operatsiyalar: bilish funksiyasi, xotira, divergent va konvergent tafakkur, baholash), mazmun: obrazli, belgili, semantik, xulqiy; natija: elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim (sistema), ozgartirish; islohot: qollash, tatbiq qilish (kelib chiqqan holda 120 ta oziga qobiliyat turlarini ajratib berishga harakat qiladi.

Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiqot qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bolib qolmasdan, balki bu muammo qadimgi davrlardan beri mutafakkir, marifatparvar olimlarning diqqat markazida bolib qolgandir. Xatto mazkur masala antiq dunyoda yashab, ijod etgan atoqli faylasuf olimlarning diqqatini oziga jalb qilgan. Ularning nuqtai nazariga kora, nus inson ruhining oliy, shuning bilan birga oziga xos aqlli tarkibi bolib, chunonchi Platon va Aristotellar olam hamda borliqni bilishning eng maqbul yoli ekanligini takidlab otadilar.

Xulosa qilib aytganda aytganda intellekt muammosi chet el G’arbiy Yevropa, AQSH) psixologiyasida juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klimov E.A. «Общаya psixologiya». – Cpb., Piter, 2001

2. Nemov R.S.Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2-t.
3. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.